

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida o'quvchilar tasavvurini kengaytirishda AKT vositalarining o'rni

Asadova Shahlo

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 52-21 guruh talabasi

Annatotsiya: Hozirgi kunda axbarot texnologiyalar ancha rivojlangan va taraqqiy etgan davr. Shu boisdan ham bugungi maqolamizni aynan shu mavzuga bag'ishladik. Ushbu maqolamizda AKT nima, AKT vositalari asosida qanday qilib o'quvchilarning tasavvurini kengaytirish mumkin, aynan shu savollar yuzasidan atroflicha ma'lumot berishga harakat qilamiz. Albatta bu ma'lumotlar bevosita texnologiya fani asosida keltirib o'tiladi.

Abstarct: Nowadays, information technology is more developed and developed. That is why we have dedicated our today's article to this topic. In this article, we will try to provide detailed information on what ICT is, how it is possible to expand students' imagination based on ICT tools. Of course, this information is directly based on the science of technology.

Аннатоция: Сейчас информационные технологии более развиты и развиты. Именно поэтому мы посвятили нашу сегодняшнюю статью этой теме. В этой статье мы постараемся предоставить подробную информацию о том, что такое ИКТ, как можно расширить воображение учащихся с помощью инструментов ИКТ. Конечно, эта информация напрямую основана на науке и технике.

Kalit so'zlar: texnologiya, boshlang'ich sinf, pedagog, AKT vositalari, tasavvur.

Inson har doim yashar ekan to umrining oxiriga qadar nimanidir o'rganishga, tushunishga va har doim yangilik axtarishga harakat qiladi. Bu insonning tabiatida bor. Xuddi shu kabi endi maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchilar ham nimadir o'rganish, ilm olish ishtiyoqida yonishadi. Albatta, ularning tasavvuri va bilimni o'zlashtirish turfa xil, lekin ularning barchasi intilish, barchasida yonib turgan yurak bor. O'rganishdagi va bilim olishdagi boshqa nosozliklar yoxud kamchiliklarni bugungi metodikasiga kirib kelayotgan turli vositalar, metod va texnologiyalar yordamida to'g'irlash mumkin. Bugungi maqolamizda aynan shular yoritib beriladi, ya'ni texnologiya fanini o'qitishda AKT vositalari orqali qanday qilib o'quvchining tasavvur qilish jarayonini yaxshilash mumkin, biz aynan shu mavzu xususida mulohaza qilamiz.

Maqolamizning asosiy mavzusiga o'tmasdan oldin AKT vositalarining ta'limdagi o'rni, AKT vositalarini qo'llash orqali boshlang'ich ta'limda o'quvchilar bilan qanday yutuqlarga va natijalarga erishish mumkin, aynan shular haqida atroflicha ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Bugungi kunda 21-asrda ya'ni raqamli dunyoda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarda o'zining o'rni va salohiyatiga ega, bundan ta'lim ham mustasno emas, albatta. Hozir biz keltirmoqchi bo'lgan ma'lumotlar endi maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchilarimizning ta'lim olish jarayonlarida AKT vositalari qay darajada zarur ekanligini isboti o'laroq keltirib o'tiladi.

AKT vositalari hali hayoli ko'chadagi o'yinlarida bo'lgan jajji o'quvchilarimiz uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan dars jarayonini tashkil qilishga yaqindan ko'mak beradi. Dars davomida berilishi kerak bo'lgan bilimlar turli xil raqamli o'yinlar va multimedia resurslari orqali amaliy va muammoli uslubda berib, o'rgatilib boriladi.

Axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida o'quvchilar keng ko'lamda bilim olish, o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jajji o'quvchilar uchun mo'jallangan turli xil mavzu va uslubdagi veb-saytlar, ta'limga oid bo'lgan ilovalar va electron kitoblar o'quvchilarning yoshi, bilim salohiyatiga ko'ra tanlansa, ham o'qituvchi, ham o'quvchi uchun ancha yordam beradi. Bu kabi vositalar o'quvchida fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va o'zi mustaqil ravishda, hech kimning yordamisiz



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

bilim olishga undaydi. AKT bolalarni maktab ostonasiga qadam qo'yishlari bilan qimmatli va turfa xil, rang-barang ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

AKT vositalari o'quvchilarda bolalik davrlaridan boshlab raqamli texnologiyalar bilan tanishish imkoniyatini tug'diradi, bu esa o'z navbatida zamon bilan hamnafas ravishda bilim olishi, izlanishi uchun yo'l ochib beradi.

AKT vositalari bolalarga o'z ijodini namoyon qilish va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish uchun platformalar yaratadi. Chizish va bo'yash ilovalari, hikoyalar uchun dasturiy ta'minot va multimedia yaratish vositalari maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zlarining tasavvurlari va badiiy qobiliyatlarini namoyish qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, video konferentsiyalar va onlayn platformalar orqali hamkorlikdagi faoliyatlar muloqot, jamoaviy ish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

AKT kichik yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan va moslashtirilgan ta'lim tajribasini beradi. Ta'lim dasturlari va ilovalari bolaning muvaffaqiyatini baholashi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi va shunga mos ravishda moslashtirilgan faoliyatni ta'minlashi mumkin. Ushbu individual yondashuv har bir bolaning o'quv salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun zarur yordam va qiyinchiliklarni olishini ta'minlaydi.

Men yuqorida keltirib o'tgan ma'lumotlarning barchasi AKT vositalarining o'quvchilar bilim olishlarida bera oladigan foydalari va imkoniyatlari edi. Bundan tashqari AKT vositalarida texnologiya darslarida ham unumli va keng ko'lamda foydalansa bo'ladi. Misol uchun darslikdagi yasalishi kerak bo'lgan biror buyumni darslikdan emas, balki AKT vositalari orqali tushuntirilsa, u yaxshiroq anglaydi, chunki yasali jarayonini ko'rish chog'ida bevosita unda tasavvur uyg'onadi va o'z hayolot dunyosida shu buyumni qanday yasashni o'ylay boshlaydi. Bu esa o'quvchining tasavvur doirasini ancha kengaytiradi, uyga topshiriqlar ham bu vositalar bilan bog'liq holda berilsa, o'quvchi o'z vaqtdan unumli foydalanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, AKT vositalari har taraflama o'quvchiga o'zining ijobiy tomonlari bilan yordam bera oladi. Ushbu vositalarni qo'llash orqali o'quvchi quyidagi jihatlarni rivojlantiradi:

- Axborot va raqamli texnologiyalar bilan tanishadi;
- Darsni qiziqarli va mazmunli tarzda o'rganadi;
- O'rganish obyekti ko'lami ancha keng bo'ladi;
- Fikrlashi, dunyoqarashi va tasavvur qilish jarayonlari kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Holloway, D., & Valentine, G. (2015). Cyberkids? Exploring children's identities and social networks in on-line and off-line worlds. *Annals of the Association of American Geographers*, 105(5), 1005-1021.
2. Plowman, L., McPake, J., & Stephen, C. (2010). Just picking it up? Young children learning with technology at home. *Cambridge Journal of Education*, 40(4), 303-319.
3. Nurillaev, R. Y. (2024). Ensuring food safety in a changing world: challenges and solutions.
4. Siraj-Blatchford, J., & Siraj-Blatchford, I. (2005). Young children's use of ICT in the home: A survey for practitioners. *Early Years*, 25(1), 7-18.
5. Takeuchi, L. M., & Vaala, S. (2014). Literacy, play, and the role of early education: A response to "Play and the Power of Play: A Research Summary." *American Journal of Play*, 7(1), 103-108.
6. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 167- 168.
7. Nurillayev, J. Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.
8. Yarashevich, P. N. J. (2023). Factors for Choosing a Marketing Strategy in Tourism Development.
9. Jumayev, F. B. (2023). Legal Services For Collection Of Expenses: Problems And Proposals. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(6 (INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCHER)), 9-13.
10. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. *Scientific progress*, 2(8), 911-913.

